

MAHALLALARDA OILA AKADEMIYASI

Zarina Nigmatullo qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Luxmonov O'ralxon

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yangi joriy etilgan Ijtimoiy ishchi xodimining vazifalari haqida fikr borgan. Unga ko'ra ijtimoiy ish xodimi o'zini qanday tutishi, uning mijozlari haqida batafsil fikr borgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ish xodimi, mahallalarda kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, chin yetim yoki yarim yetim, 1- va 2- guruh nogironi, o'zgaralar yordamiga muhtoj shaxslar, oila akademiyasi.

Kirish. Joriy yilning 15-oktabrdan boshlab mahallalarda ijtimoiy ish xodimi shtati qo'shilishi bugungi kun uchun juda kerakli va o'ta muhim yo'nalish bo'ldi deb hisoblayman. Bunga sabab mahallada mahalla raisi o'zining keng qamrovli ko'lami keng vazifalari bilan, xotin-qizlar ajrim masalalari bilan shug'ullansa, hokim yordamchisi esa kambag'allikni qisqartirish bo'yicha faoliyat olib boradi. Mahalla nozirining ham o'z vazifalari bor. Ko'rib turubmizki, ularning o'zining xizmat va vazifalari o'ziga yetarlicha. Ular aynan bir inson yoki oila bilan individual ko'p uzoq vaqt ishlolmaydi chunki ular ham jismoniy, ham ma'naviy quvvatlari yetmaydi. Hamma bilan birdek ishlashlari kerak. Ijtimoiy ish xodimi esa, mahallalarda kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, chin yetim yoki yarim yetim, 1chi va 2chi guruh nogironi, o'zgaralar yordamiga muhtoj shaxslar bilan individual shug'ullanadilar. Mahalladagi barcha fuqarolar bilan ishlamaganligi sababli ular yuqorida aytib o'tilgan fuqarolar bilan individual shug'ulla oladilar va bunga ham jismoniy, ham ma'naviy bilimlari yetadi imkoniyatlari yetadi.

Men yana shunga qo'shimcha qilib yana bir vazifani kiritish istagim bor edi. Hozirgi kunda yosh oilalarning ajralishlari oshib ketayotganligi tufayli ijtimoiy ish xodimi ham bunga o'z ish faoliyati yuzasidan oilani asrab qolish targ'ibot ishlarini olib borish istagida OILA AKADEMIYASI tashkil etilsa, xalqimizda bir ibora bor "kasallikni da'volagandan ko'ra, uni oldini olish ma'qul" degan ibora bor. Bu gapim bilan shuni aytmoqchimanki, oila qurush payida yurganlar uchun OILA AKADEMIYASIda oyda bir marotaba o'tkaziladigan smenar trening o'tkazishlarini istar edim. Bu gapim bilan shuni aytmoqchimanki, bu yig'ilishda turmushgacha qizlar va yigitlarni oilaga tayyorlash maqsadida yosh oilalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni yuzaga kelmasidan oldini olish va shunday vaziyatlarda o'zini tutish yoki shunday vaziyatlarga tushib qolmaslik uchun yoshlarni psixologik

tayyorlash kabi masalalarga e'tibor qaratiladi. Bu yig'ilishda bo'lajak kuyov va kelin, mahalladagi yoshi ulug' oilasi namunali onaxonlar ijtimoiy ish xodimi ishtirokida tashkil etib, hayot turmushlarining achchiq-chuchuklari haqida tushuntirish ishlarini olib borilsa, diniy va dunyoviy ilm tajribalar haqida tushuntirish olib borilsa hozirgi kun uchun oiladagi arzimagan narsadan kelib chiqadigan sabablar tufayli yangi oila buzilib ketishini oldini olinar edi. Chunki har ikkala yoshlarga diniy va dunyoviy ilm beradigan berganda ham to'g'ri aytadigan insonlarning maslahatini olmaganligi sababli ajrimlarning oshishi yuzaga kelmoqda. Chunki oiladan so'ray desa uyaladi. Ko'cha kuyda chala partish eshitgan eshitgan bo'lsada to'g'ri maslahat berilmagan. Oilani tushunib tushunmay, qadriga yetib yetmagan hali qadriga yetishga ulgurmasdan ajrashish yoqasiga kb qolmoqda. IJTIMOY ISH XODIMI shu muammolarni oldini olish uchun OILA AKADEMIYASI tashkil etsa ajralishlar sonining kamayishiga olib kelar edi db hisoblayman. Va yana Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining "Baxtiyor oila", Shayx Yusuf xattor Muhammadning "Oila sadoqat maskani", "Islomda oila", Ziyovuddin Rahimning "Baxtli xayot sari" Odinaxon Muhammad Sodiqning "Qizlarjon" kitoblari bilan o'qib chiqib, turmush qurulsa jamiyatga katta ijobiy hodisa bo'lar edi.

Yurtimizda "oila tinch-yurt tinch" maqolasi ham Shayx Xazratlarimizning "Baxtiyor oila" kitoblarida keltirilgan jumla misol bola oladi. "O'zi yaratgan borliqda O'zi yaratgan inson qanday yashasa saodatli bo'lishini yaxshi biladigan Alloh taolo erkak va ayollarning nikoh orqali oila qurib yashashlarini iroda qildi. Shuning uchun ham O'zining barcha Anbiyolariga, avliyolariga va solih bandalariga nikohli hayotni ravo ko'rdi. O'zining barcha samoviy dinlarida nikohni joriy qildi. Oila har bir jamiyatning boshlang'ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, halol-haromning farqi qolmasa, o'sha jamiyat buziladi, tinchi yo'qoladi, oxir-oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi"¹ degan sozlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Ijtimoiy ish xodimi har bir mahallaga kerak vas hart o'z ishiga sidqi dildan **vijdonan** yondashib ishlagan xodimning sharofati bilan qanchadan-qancha oila saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. - 464 bet.

¹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining Baxtiyor oila kitobidan

2. Sh.Mirziyoyev Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.
3. Sh.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarning kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent. “O‘zbekiston”, 2017.
4. M.X.G‘aniyeva. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik. Toshkent.”Fan va texnologiya” nashriyoti-2015.
5. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” (saodatga yo‘lovchi bilim). “Fan” nashriyoti. Toshkent – 1971y. 175-bet.
6. Amir Temur “Temur Tuzuklari”. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matba birlashmasi 1991.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining
Baxtiyor oila,
Sog'lom bola,
Ijtimoiy odoblar kitoblari.